711.	2022-yil 1-maydan boshlab bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashning quyidagilarni nazarda tutuvchi soddalashtirilgan tartibi joriy etilsin: e) qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga rasmiylashtirishda bojxona boji undirilmaydi;	PF-115	25.04.2022	—
712.	2022-yil 1-apreldan 2024-yil 1-yanvarga qadar motokultivatorlar (TIF TN kodi — 8432 29 100 0) va minitraktorlarni (TIF TN kodi — 8701 91 100 0 — 8701 94 100) olib kirishda bojxona bojining nol stavkalari belgilansin.	PQ-54	16.12.2021	01.01.2024
713.	Tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha xorijdan olib kelinadigan, ishlab chiqarilganiga 5 yildan oshmagan ozuqa ekinlarini ekish, yig'ish va ozuqa tayyorlash qishloq xo'jaligi texnikalari, ularning butlovchi buyumlari va ehtiyot qismlari, istisno tariqasida, 2025-yil 1-martga qadar bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) va utilizatsiya yig'imidan ozod qilinsin hamda tadbirkorlik subyektlariga "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini 180 kungacha bo'lgan muddatga kechiktirib to'lashga ruxsat berilsin.	PQ-121	08.02.2022	01.03.2025
714.	Quyunchilik xo'jaliklari tomonidan shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha xorijdan olib kelinadigan uskunalar, qishloq xo'jaligi texnikalari, butlovchi buyumlar va materiallar, naslli quyon hamda ozuqa qo'shimchalari, istisno tariqasida, 3 yil muddatga bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod qilinsin hamda erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'ini 1 yil muddatga kechiktirib to'lashga ruxsat berilsin.	29	18.01.2022	18.01.2025
715.	Muassasa va tashkilotlar, tadbirkorlik subyektlari tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha o'zlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yoki ta'minlash maqsadida xorijdan import qilib olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan musiqa cholg'ulari, ovoz kuchaytirgich moslamalar, texnik jihozlar, chiroqlar, maxsus libos va oyoq kiyimlar, "Madaniyat karvoni" uchun mo'ljallangan maxsus avtotransport vositalari, ularga o'rnatiladigan musiqa texnikasi va sahnalar 2025-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojidan ozod etilsin.	PQ-112	02.02.2022	01.01.2025
716.	14.Yo'lovchilar tashish uchun mo'ljallangan, haydovchi bilan birgalikda sakkiz va sakkiztadan ortiq o'rindiqlarga ega bo'lgan, faqat elektr dvigatel orqali harakatga keltiriladigan avtotransport vositalarini 2026-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda utilizatsiya yig'imining nol stavkasi qo'llanilsin.	PQ-111	02.02.2022	01.01.2026

717.	2-ilovaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlar;	PQ-104	27.01.2022	01.01.2025
718.	12. O'zbekiston velosport federatsiyasi va uning hududiy bo'linmalari hamda O'zbekiston velosport milliy terma jamoasi, sport-ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalarining velosport turlari bo'yicha bo'limlar va Klubning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha olib kelinadigan, respublikamizda ishlab chiqarilmaydigan sport anjomlari, jihozlari, kiyimlari va ekipirovkasi, ozuqa va ozuqa qo'shimchalari, vitaminlar, uskunalar va materiallar, velosipedlarni tashishga mo'ljallangan yangi va ishlab chiqarilganligiga yetti yil to'lmagan maxsus avtotransport vositalari va tirkamalar 2024-yil 1-sentabrga qadar bojxona bojidan ozod etilsin.	PQ-5251	24.09.2021	01.09.2024
719.	19. Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan olingan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan ilmiy-laboratoriya uskunalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqilmaydigan butlovchi va xarajat materiallar, qurilish texnikasi, kichik mexanizatsiya vositalari, material va uskunalar uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin.	PQ-2789	17.02.2017	—
720.	19. Madaniyat vazirligi tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha xorijdan olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, Teatrning faoliyati uchun zarur bo'lgan musiqa asbob-uskunolari, texnik jihozlar, chiroqlar, grim mahsulotlari va balet artistlari uchun maxsus liboslar, oyoq kiyimlar 2024-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojidan ozod etilsin.	PQ-64	27.12.2021	01.01.2024
721.	3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq: ... g) 2024-yil 1-yanvarga qadar ro'yxati 4-ilovada ko'rsatilgan yangi qurilish va maxsus texnikalar hamda yuk tashish transport vositalari importida bojxona boji va utilizatsiya yig'imining nol stavkasi qo'llaniladi.	PF-33	09.12.2021	01.01.2024
722.	7. Sport maktablari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari ot sporti, zamonaviy beshkurash va polo bo'limlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha olib kelinadigan, respublikamizda ishlab chiqarilmaydigan inventarlar, sport kiyimlari, sport otlari, naslli mahsulotlar (materiallar), ozuqa va ozuqa qo'shimchalari, vitaminlar, veterinariya dori vositalari, uskunalar va materiallar, otlarni tashishga mo'ljallangan yangi va ishlab chiqarilganligiga yetti yil to'lmagan maxsus avtotransport (konevoz) vositalari va tirkamalar, lazerli to'pponcha va nishonlar, polo tayog'i 2024-yil 1-iyulga qadar bojxona bojidan ozod etilsin.	PQ-5211	05.08.2021	01.07.2024
723.	10. Yoshlar siyosati va sport vazirligi, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi, olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha federatsiya (assotsiatsiya)lar tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha xorijdan	PQ-5281	05.11.2021	01.10.2024

	olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan sport anjomlari, jihozlari, uskunalari, sun'iy sport maydonlari va ularning yordamchi uskunalari (shu jumladan, maxsus mashg'ulot trenajyorlari, zamonaviy ilmiy texnologiya vositalari), maxsus sport kiyimlari (ekipirovkalar), kompyuter texnikasi, multimedia mahsulotlari, sport tibbiyoti jihozlari, tibbiy biologik va farmakologik preparatlar 2024-yil 1-oktabrga qadar bojxona bojidan ozod etilsin.			
724.	1. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Xorazm viloyati hokimligining 2022-yil 1-yanvardan: ... foyda solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 50 foizga kamaytirish; ular tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan o'z ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) ehtiyojlari uchun olib kiriladigan xomashyo, materiallarni bojxona bojidan ozod qilish;	PF-25	23.11.2021	01.01.2025
725.	8. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va Toshkent viloyati teleradiokanalini texnologik jihozlash uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan ro'yxatlarga muvofiq olib kiriladigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan import tovarlar — multimedia, radiotelevizion uskunalari, materiallar, dasturiy ta'minot va ehtiyot qismlarni 2024-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojidan ozod qilinsin.	PQ-18	18.11.2021	01.01.2024
726.	10. Sportning ustuvor turlari bo'yicha sport maydonchalarini tashkil etish va jihozlash uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha chetdan olib kiriladigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan maxsus sport anjomlari va jihozlari, inventar, qurilish materiallari va moddiy-texnika resurslari 2024-yil 1-sentabrga qadar bojxona bojidan ozod etilsin.	PQ-5282	05.11.2021	01.09.2024
727.	6. Sport-ta'lim muassasalari hamda Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutini jihozlash hamda faoliyatini tashkil etish uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan uskunalar, maxsus transport vositalari, multimedia mahsulotlari, tibbiyot trenajyorlari, adabiyotlar, sun'iy hamda tabiiy maydon qoplamalari va inventarlar 2024-yil 1-oktabrga qadar bojxona bojidan ozod etilsin.	PQ-5280	05.11.2021	01.10.2024
728.	b) tematik xiyobonlar, mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarini 2024-yilning 1-yanvariga qadar — belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlarga ko'ra tematik xiyobonlar, mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarini qurish, qayta ta'mirlash va jihozlash uchun asbob-uskunalar, texnika, xomashyo, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, qurilish va boshqa materiallarni (shu jumladan mebel va inventar) olib kirish uchun bojxona bojini to'lashdan; v) tadbirkorlik faoliyati subyektlarini 2024-yilning 1-yanvariga qadar — O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan:	PF-5326	03.02.2018	01.01.2024

	ishlab chiqarilganiga 5 yildan ortiq bo'lmagan, yo'lovchilarni tashishda foydalaniladigan va haydovchidan tashqari sakkiz va sakkiztadan ortiq o'rindiqlarga ega bo'lgan transport vositalari; dor (osma) yo'llarni, tog'-chang'i ko'targichlar, funikulyorlar va boshqa o'xshash obyektlar va inshootlarni qurish, qayta ta'mirlash va jihozlash uchun asbob-uskunalar, mexanizmlar va ehtiyot qismlar, shuningdek, aerostatlar (havo sharlari), elektromotorli qayiq, qorda harakatlanishga mo'ljallangan maxsus transport vositalari (TIF TN kodi 8703 10) va kvadrotsikllar uchun belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlarga ko'ra bojxona bojini to'lashdan ozod etilsin.			
729.	1. 2024-yil 1-yanvarga qadar import bojxona boji "nol" stavkada qo'llaniladigan ayrim turdagi xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.	PQ-5262	20.10.2021	01.01.2024
730.	6. "Toshkent metropoliteni" DUK 2024-yil 1-yanvarga qadar respublikada ishlab chiqarilmaydigan va belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha import tovarlarni olib kirishda bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin.	PQ-5260	16.10.2021	01.01.2024
731.	2. Mazkur Farmonning 1-bandida nazarda tutilgan g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun, agar ularning ishlab chiqarilganligiga 4 yildan ortiq bo'lmasa hamda "Yevro-5" va undan yuqori ekologik toifa talablariga mos kelsa, 2024-yil 1-yanvarga qadar utilizatsiya yig'imining nol stavkasi qo'llanilsin.	PF-6318	30.09.2021	01.01.2024
732.	3. O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda quyidagi tovarlar 2021-yil 1-oktabrdan boshlab 2024-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojidan ozod qilinsin: belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv laboratoriya va maxsus asbob-uskunalar va jihozlar; taqiqlanmagan o'yin avtomatlari (TIF TN kodi 9504 30 200 1, 9504 30 200 9), videoo'yinlar uchun uskunalar (TIF TN kodi 9504 30 100 0), va bouling uchun avtomatik uskunalar (TIF TN kodi 9504 90 800 9); belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan, shu jumladan lizing shartnomasi asosida olib kelinadigan yangi stomatologiya va kosmetologiya asbob-uskunolari, butlovchi buyumlar va ularning ehtiyot qismlari hamda sarflash materiallari.	PF-6318	30.09.2021	01.01.2024
733.	5. Belgilansinki, 2021-yil 1-oktabrdan boshlab: tabiiy gazni eksportga realizatsiya qilishda aksiz solig'i stavkasi nol foiz miqdorida belgilanadi; yuridik shaxslar tabiiy gazni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilishda bojxona bojidan ozod qilinadi.	PF-6319	06.10.2021	—

734.	7. Belgilansinki, 2024-yil 1-yanvarga qadar davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar uchun belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha Bolalar jamoat fondi tomonidan olib kelinadigan dori vositalari, tibbiyot uskunalari va protezlash vositalari bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruvi yig'implaridan tashqari) ozod qilinadi.	PQ-5255	04.10.2021	01.01.2024
735.	13. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq: ... 2021-yil 1-avgustdan 2024-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda import qilinayotgan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan uzumchilik va vinochilik sohasida qo'llanadigan xomashyo, uskunalar, maxsus texnikalar, ehtiyot qismlar, shuningdek, eman bochkalar va zanglamaydigan sig'implar (yig'ilmagan va tayyor shaklda) hamda ularning butlovchi qismlari 3-ilovaga asosan bojxona bojidan ozod etiladi.	PQ-5200	28.07.2021	01.01.2024
736.	8. 2024-yil 1-iyunga qadar Agentlik va Universitet tomonidan olib kelinadigan o'quv va ilmiy laboratoriya jihozlari, sarflanadigan laboratoriya materiallari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, multimedia mahsulotlari, o'quv va ilmiy-metodik adabiyotlar, qurilish materiallari, inventar va moddiy-texnika resurslari bojxona bojidan ozod etilsin.	PQ-5158	23.06.2021	01.06.2024
737.	5. Quyidagilar: ... issiqxonalar va uy-issiqxona majmualarini ishlab chiqarish uchun xorijdan olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan materiallar, xomashyolar va butlovchi qismlar 2023-yilning 31-dekabriga qadar bojxona bojidan ozod qilinsin;	PQ-5138	07.06.2021	31.12.2023
738.	19. 2024-yil 1-yanvarga qadar 3-ilovaga muvofiq kinokompaniyalar moddiy-texnik bazasini kuchaytirish va kinoteatr (kinozal)lar uchun tovarlar olib kirishda bojxona bojining nol stavkasi belgilansin.	PF-6202	07.04.2021	01.01.2024
739.	10. b) kinokompaniyalar zamonaviy infratuzilmaga ega film tasvirga olish obyektlarini (pavilonlarni) barpo etish bo'yicha investitsiya kiritish majburiyatini olgan taqdirda, Respublika komissiyasining taqdimnomasiga ko'ra: ular 2024-yil 1-apreliga qadar obyektlarni jihozlash uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan kino ishlab chiqarish qurilmalari bo'yicha bojxona boji to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruvi yig'implaridan tashqari) ozod etiladi.	PF-6202	07.04.2021	01.04.2024
740.	15. Institutning moddiy-texnik bazasini shakllantirish va mustahkamlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan olib kirilayotgan uskunalar, texnologik qurilmalar va jihozlar, moddiy-texnika vositalari, dasturiy ta'minot va xizmatlar bojxona bojlaridan ozod qilinsin.	PQ-5063	09.04.2021	—
741.	8. 2024-yil 1-yanvarga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlari tomonidan import qilinadigan asbob-uskunalar, texnika, xomashyo, butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar va boshqa materiallar bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'implardan tashqari) ozod etilsin.	PF-6201	06.04.2021	01.01.2024

742.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqaro aviatsiyasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5584-son Farmoniga muvofiq hamda respublika aeroportlarida yo‘lovchilarga va aviatashuvchilarga yuqori darajada xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlash maqsadida: a) xususiy sheriklar, ular tomonidan jalb qilinadigan loyiha tashkilotlari, operatorlar, maslahatchilar, pudratchilar va subpudratchilar: olib kiriladigan maxsus transport vositalari, yo‘l-qurilish texnikasi, mashinalar, mexanizmlar, uskunalar, xomashyo, materiallar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, uzellar, texnologik va loyiha hujjatlari, dasturiy ta‘minot, jihozlar, shu jumladan, loyihani amalga oshirishda ishtirok etayotgan pudrat qurilish tashkilotlarini jihozlashga mo‘ljallangan maxsus yo‘l-qurilish texnikasi va uskunolari uchun bojxona bojidan; olib kiriladigan transport vositalari (yengil avtomobillardan tashqari) va maxsus texnika uchun utilizatsiya yig‘imidan ozod qilinadi;	PQ-5042	29.03.2021	—
743.	13. 2024-yil 1-yanvarga qadar Filialni rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash, jihozlash va uning faoliyatini ta‘minlash uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha olib kiriladigan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan o‘quv va ilmiy-laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, o‘quv va ilmiy-uslubiy adabiyotlar, inventarlar, qurilish materiallari va moddiy-texnik resurslar bojxona to‘lovlaridan (qo‘shilgan qiymat solig‘i va bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlaridan tashqari) ozod etilsin.	PQ-4942	12.01.2021	01.01.2024
744.	39-modda. Soliqlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari soliq bo‘yicha imtiyozlardan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda foydalanadi. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari quyidagilarni to‘lashdan ozod etiladi: respublikada ishlab chiqarilmaydigan va investitsiya bitimiga muvofiq investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun qurilish davrida belgilangan tartibda olib kirilgan qurilish materiallari uchun bojxona to‘lovlarini (bundan qo‘shimcha qiymat solig‘i va bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlar mustasno); tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha texnologik uskunalarining o‘xshashi O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydiganini olib kirishda bojxona to‘lovlarini (bundan bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlar mustasno). Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqarish va mahsulotlarni eksportga realizatsiya qilish uchun foydalanadigan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda bojxona to‘lovlari (bundan bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlar mustasno) to‘lanmaydi. Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari tovarlarni import qilganda qo‘shilgan qiymat solig‘ini 120 kungacha muddatga kechiktirib to‘lashi mumkin.	O‘RQ-604	17.02.2020	—

	Hisoblangan soliq summasidan hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining oshib ketishi natijasida hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'zini maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisiga yetti kun davomida soddalashtirilgan tartibda qoplab beriladi. To'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda qoplab beriladi.			
745.	4. Neft va gaz konlarini qidirish va razvedka qilish ishlarini amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar, shuningdek, ular tomonidan jalb etiladigan xorijiy pudrat va yordamchi pudrat tashkilotlari quyidagilarni to'lashdan ozod qilinsin: qidirish, razvedka qilish va boshqa tegishli ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mashina-uskunalarini, moddiy-texnika resurslari va xizmatlarni import qilish chog'ida bojxona to'lovlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari).	PF-2598	28.04.2000	—
746.	12. Quyidagilar: vinochilik korxonalari O'zbekiston Respublikasida yetarli hajmlarda ishlab chiqarilmaydigan, vinochilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun olib kelinadigan va foydalaniladigan materiallar, xomashyo, o'simliklarni himoya qilish vositalari va buyumlar belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxat asosida olib kirilishi uchun 2025-yilning 1-yanvariga qadar bojxona to'lovlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod etilsin.	PQ-3573	28.02.2018	01.01.2025
747.	6. O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi korxona va tashkilotlar 2025-yilning 1-yanvariga qadar: xarid qilinadigan avtotransport vositalarining qiymatidan Davlat budjetiga to'lanadigan avtotransport yig'imlaridan ozod qilinsin.	PQ-2776	14.02.2017	01.01.2025
748.	9. Ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarini qayta jihozlash va qo'shimcha jihozlash uchun belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha modernizatsiya qilish doirasida olib kelinadigan uskunalar bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin.	PQ-916	15.07.2008	—
749.	22-modda. Investitsiyalarni himoya qilishning qo'shimcha kafolatlari va choralari Investitsiyalarni himoya qilishning qo'shimcha kafolatlari va choralari O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan kafolatlar berishni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ko'maklashishni, maxsus soliq va to'lov rejimini yaratishni, investitsiya loyihalari amalga oshirilishi yuzasidan davlat monitoringi o'tkazilishini hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan tuzilgan investitsiya shartnomalariga asosan boshqa choralarni o'z ichiga olishi mumkin.	O'RQ-598	25.12.2019	—
750.	246/2/4/2. davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirish;	Bojxona kodeksi	30.12.2019	—

751.	246/10. vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;	Bojxona kodeksi	30.12.2019	—
752.	246/8. milliy valyuta va chet el valyutasi, qonuniy to'lov vositalari bo'lgan banknotlar (bundan kolleksiyalash uchun mo'ljallanganlari mustasno), shuningdek qimmatli qog'ozlar;	Bojxona kodeksi	30.12.2019	—
753.	246/7. xalqaro kitob almashinuvi bo'yicha davlat kutubxonalari va muzeylari tomonidan olinadigan bosma nashrlarning barcha turlari, shuningdek xalqaro notijorat almashinuvini amalga oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan davlat tashkilotlari tomonidan olib kiriladigan kinematografiya asarlari;	Bojxona kodeksi	30.12.2019	—
754.	246/5. qonunchilikka muvofiq alohida qimmatga ega madaniy meros obyektlari jamoasiga kiritilgan, davlat madaniyat muassasalari tomonidan olingan yoki ular tomonidan sovg'aga olingan madaniy qimmatliklar. Ushbu soliq solishdan ozod etish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tegishli tasdiqnomasi mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi;	Bojxona kodeksi	30.12.2019	—
755.	246/4. chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;	Bojxona kodeksi	30.12.2019	—
756.	246/3. davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda — boshqa tashkilotlar va shaxslar yo'nalishlari bo'yicha xayriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko'rsatish (grantlar) uchun olib kiriladigan tovarlar;	Bojxona kodeksi	30.12.2019	—
757.	246/2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirilayotgan tovarlar;	Bojxona kodeksi	30.12.2019	—
758.	13. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq Tartibning amal qilish davrida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tomonidan taqdim etilgan ro'yxat bo'yicha: O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, istisno tariqasida, bojxona chegarasi orqali o'tkazilayotgan zarur dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika, ularni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan materiallar va substansiyalar uchun "yashil" yo'laklar tashkil qiladi va ushbu tovarlarga nisbatan bojxona bojlari undirilmaydi;	176	23.03.2020	—
759.	1. Yuridik shaxslar ilovaga muvofiq chetdan keltiriladigan yog'och-taxta materiallari va yog'och uchun import bojxona boji to'lashdan ozod qilinsin.	305	07.07.2003	—
760.	9. 2025-yil 1-yanvarga qadar obyektlarni rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, jihozlash va faoliyatini tashkil etish, shuningdek TDYU Media markazining faoliyatini tashkil etish	873	15.10.2019	01.01.2025

	uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha bosh pudratchi tashkilot va TDYU tomonidan olib kiriladigan, O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan uskunalar, kompyuter texnikasi va orgtexnika, o'qitishning texnik vositalari, adabiyotlar, multimedia uskunalari jamlanmasi, dasturiy ta'minotlar, inventar va qurilish materiallari bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruv yig'implaridan tashqari) ozod qilinsin.			
761.	9. Qizilmiya va boshqa dorivor o'simliklar plantatsiyalarini tashkil etadigan, shuningdek, qizilmiya va boshqa dorivor o'simliklarni qayta ishlaydigan tadbirkorlik subyektlariga 2024-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatga: a) quyidagilardan: belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha o'zlarining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun respublikada ishlab chiqarilmaydigan olib kelinadigan texnologik uskunalar, maxsus qishloq xo'jaligi texnikalari, ularning butlovchi va ehtiyot qismlari, qizilmiya va boshqa dorivor o'simliklar urug'lari va ko'chatlari uchun bojxona bojidan ozod qilish.	138	15.02.2019	01.01.2024
762.	7. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan va "JV MAN Auto-Uzbekistan" MCHJ QK va "O'zbekgidroenergoqurilish" AJ "Toshieskurilish" DP tomonidan "MAN" og'ir yuk avtotransport vositalari uchun kabinalar ishlab chiqarishni o'zlashtirish loyihasini ro'yxatlar bo'yicha amalga oshirish uchun olib kiriladigan tovarlar bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruv yig'implari bundan mustasno) ozod qilinsin., belgilangan tartibda shakllantiriladi.	66	24.03.2015	—
763.	9. Loyihani amalga oshirish doirasida bosh pudratchi tashkilot, investor va tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib beruvchilar 2029-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda foyda solig'i va mol-mulk solig'i, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlarga muvofiq chetdan olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar, detallar, uzellar, texnologik hujjatlar, dasturiy ta'minot va qurilish materiallari uchun bojxona to'lovlari to'lashdan (bojxona yig'implari bundan mustasno) ozod qilinsin.	688	19.08.2019	01.01.2029
764.	8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahrining Yashnobod tumanida innovatsiya texnoparkini tashkil qilish to'g'risida" 2017-yil 5-iyundagi PF-5068-son Farmonining 10-bandida nazarda tutilgan soliq va bojxona imtiyozlari "Xorazm" texnoparki rezidentlari va Direksiyasiga ham tatbiq etilsin. "Yashnobod" innovatsiya texnoparki va "Xorazm" texnoparki rezidentlari uchun nazarda tutilgan soliq hamda bojxona imtiyozlari faqat Toshkent shahri va Xorazm viloyati hududi doirasida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyatida qo'llanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.	585	15.07.2019	—
765.	9. Investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida 2023-yil 31-dekabrgacha bo'lgan muddatda: b) "Jizzax organic" MChJ XK, Singapurning "Enter Engineering Pte.Ltd" kompaniyasi (bosh pudratchi) va uning subpudratchi tashkilotlari:	619	23.07.2019	31.12.2023

	o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha uskunalar, maxsus transport vositalari, qishloq xo'jaligi texnikasi, ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlar, moddiy-texnika resurslari, xomashyo, material va o'simliklarni olib kirishda bojxona to'lovlarini to'lashdan (bojxona yig'implardan va qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari);			
766.	8. Davlat bojxona qo'mitasi (M.V. Toxiriy): uch oy muddatda barcha EIZ hududlarida bojxona postlari va omborxonalarining ochilishi va faoliyat yuritishini; "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi hududida joylashgan asbob-uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, xomashyo, materiallar va butlovchi qismlarni erkin bojxona zonasi rejimidan bojxona to'lovlarini to'lamasdan, muqaddam rasmiylashtirilgan bojxona ko'rigi asosida, eksport bojxona yuk deklaratsiyasi, sertifikatlar va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ruxsat beruvchi boshqa hujjatlarini taqdim etmasdan, erkin muomalaga chiqarish rejimiga qayta rasmiylashtirilishini ta'minlasin.	PQ-3175	07.08.2017	—
767.	3. Qabul qilinsinki, amaldagi qonunchilikka muvofiq grant mablag'lari hisobidan olib kiriladigan skanerlash uskunalari bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi.	PQ-2790	20.02.2017	—
768.	Ozod qilish: loyihani amalga oshirish doirasida bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'implaridan tashqari), qo'shilgan qiymat solig'idan, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar va yig'implardan MFSR qarzi hisobidan sotib olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va transport vositalari; O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan olinadigan daromadlari. Belgilansinki, ushbu bandda nazarda tutilgan imtiyozlarning amal qilishi fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi tashkilotlari tomonidan loyihaning qayta moliyalashtiriladigan mablag'lari hisobidan sotib olinadigan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ham tatbiq etiladi. Mazkur imtiyozlar berish natijasida bo'shab qo'yiladigan mablag'lar summasi o'zbekiston Respublikasining loyihani amalga oshirishga qo'shgan hissasi hisoblanadi.	PQ-2795	22.02.2017	—
769.	8. Qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida o'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan kreditlar (kreditlar) hisobidan olib kiriladigan va sotib olinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'implaridan tashqari) va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.	PQ-2783	16.02.2017	—
770.	406-modda. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonasining va konsullik muassasasining ma'muriy-texnik xodimlari uchun bojxona imtiyozlari O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonasining va konsullik muassasasining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari o'z shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni, shu jumladan ro'zg'orni dastlabki	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—

	ta'minlash uchun kerakli bo'lgan tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya qilgan, bojxona to'lovlari to'lashdan ozod etilgan holda olib chiqadi va xizmat safari yakunlanganidan keyin shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlarni (avtotransport vositalari bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasiga olib kiradi, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'implari mustasno.			
771.	405-modda. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonasining diplomatik agentlari va konsullik muassasalarining konsullik mansabdor shaxslari uchun bojxona imtiyozlari O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonasining diplomatik agentlari va konsullik muassasalarining konsullik mansabdor shaxslari (diplomatik vakolatxonaning boshlig'i va a'zolari), shuningdek ular bilan birga yashaydigan oila a'zolari o'z shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni, shu jumladan ro'zg'orni dastlabki ta'minlash uchun kerakli bo'lgan tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya qilgan, bojxona to'lovlari to'lanishidan ozod etilgan holda olib chiqadi va xizmat safari yakunlanganidan keyin shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlarni (avtotransport vositalari bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasiga olib kiradi, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'implari mustasno.	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—
772.	404-modda. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari uchun bojxona imtiyozlari O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari bunday vakolatxonalar va muassasalar tomonidan rasmiy foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlarni (avtotransport vositalari bundan mustasno) bojxona chegarasi orqali olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya qilgan, bojxona to'lovlari to'lanishidan ozod etilgan holda O'zbekiston Respublikasiga olib kiradi va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqadi, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'implari mustasno.	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—
773.	402-modda. Bojxona hududi orqali tranzit tarzida o'tadigan diplomatik agentlar, konsullik mansabdor shaxslari, chet davlatlarning vakillari va delegatsiya a'zolari uchun bojxona imtiyozlari Chet davlatning diplomatik agentlariga va konsullik mansabdor shaxslariga, ularning oila a'zolariga, shuningdek ushbu Kodeksning 401-moddasida ko'rsatilgan shaxslarga bojxona hududidan tranzit tarzida o'tayotganda chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining diplomatik agentlari uchun nazarda tutilgan bojxona imtiyozlari beriladi.	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—

774.	401-modda. Chet davlatlarning vakillari va delegatsiyalari a'zolari uchun bojxona imtiyozlari Davlatlararo muzokaralarda, xalqaro konferensiyalar va kengashlarda qatnashish uchun yoki boshqa rasmiy topshiriqlar bilan O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan chet davlat vakillariga, parlament va hukumat delegatsiyalari a'zolariga, shuningdek o'zaro kelishuv asosida chet davlat delegatsiyalarining a'zolariga chet davlat diplomatik vakolatxonasining diplomatik agentlari uchun ushbu bo'limda nazarda tutilgan bojxona imtiyozlari beriladi. Xuddi shunday imtiyozlar mazkur shaxslarga hamroh bo'lib kelgan oila a'zolariga ham beriladi.	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—
775.	400-modda. Chet davlatlarning diplomatik va konsullik kuryerlari uchun bojxona imtiyozlari Chet davlatlarning diplomatik va konsullik kuryerlari o'z shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni o'zaro kelishuv asosida bojxona ko'rigidan o'tkazishdan va bojxona to'lovlari to'lanishidan ozod etilgan holda bojxona hududiga olib kirishi va ushbu hududdan olib chiqishi mumkin, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtdan tashqari vaqtda tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'implari mustasno.	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—
776.	398-modda. Chet davlatlarning konsullik muassasalari va ularning xodimlari uchun bojxona imtiyozlari Chet davlatning konsullik muassasalariga va konsullik muassasalarining mansabdor shaxslariga, shuningdek ularning oila a'zolariga chet davlatning diplomatik vakolatxonalari hamda diplomatik vakolatxonalarining diplomatik agentlari uchun ushbu bobda nazarda tutilgan bojxona imtiyozlari beriladi. Chet davlat konsullik muassasasining boshqa xodimlariga (konsullik xizmatchilariga, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga), shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan oila a'zolariga nisbatan har bir chet davlat bilan tuzilgan maxsus kelishuv asosida va shu davlat bilan munosabatlardagi o'zaro hamjihatlik prinsipidan kelib chiqqan holda chet davlat diplomatik vakolatxonasining tegishli xodimlariga (ma'muriy-texnik xodimlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga) ushbu bobda beriladigan bojxona imtiyozlari tatbiq etilishi mumkin.	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—
777.	397-modda. Diplomatik agentlarga beriladigan bojxona imtiyozlarining chet davlat diplomatik vakolatxonasining ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga tatbiq etilishi Chet davlat diplomatik vakolatxonasining ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga, shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan oila a'zolariga har bir chet davlat bilan tuzilgan maxsus kelishuv asosida va shu davlat bilan munosabatlardagi o'zaro hamjihatlik prinsipidan kelib chiqqan holda, ushbu Kodeksning 395-moddasiga muvofiq diplomatik agentlarga beriladigan bojxona imtiyozlari tatbiq etilishi mumkin.	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—

778.	396-modda. Chet davlat diplomatik vakolatxonasining ma'muriy-texnik xodimlari uchun bojxona imtiyozlari Chet davlat diplomatik vakolatxonasining ma'muriy-texnik xodimlari va ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, ro'zg'orni dastlab ta'minlash uchun kerakli bo'lgan tovarlarni bojxona to'lovlari to'lanishidan ozod qilingan holda bojxona hududiga olib kirishi mumkin, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'implari mustasno.	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—
779.	395-modda. Chet davlat diplomatik vakolatxonasining diplomatik agenti uchun bojxona imtiyozlari Diplomatik vakolatxonaning diplomatik agentlari (diplomatik vakolatxonaning boshlig'i va a'zolari), shuningdek ular bilan birga yashaydigan va O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan oila a'zolari o'zlarining shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni, shu jumladan ro'zg'orni dastlab ta'minlash uchun kerakli bo'lgan tovarlarni bojxona chegarasidan bojxona to'lovlaridan ozod etilgan va olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya qilgan holda, bojxona hududiga olib kirishlari va ushbu hududdan olib chiqishlari mumkin, bundan tovarlarni saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazganlik uchun bojxona yig'implari mustasno.	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—
780.	394-modda. Chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalari uchun bojxona imtiyozlari Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi diplomatik vakolatxonalari bojxona chegarasidan olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya etgan taqdirda vakolatxonalar va muassasalarning rasmiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni bojxona to'lovlaridan ozod etilgan holda bojxona hududiga olib kirishlari va ushbu hududdan olib chiqishlari mumkin, bundan saqlaganlik, belgilangan joylardan tashqarida yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazganlik uchun bojxona yig'implari mustasno.	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—
781.	299-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig'imlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar Bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig'imlarini to'lashdan quyidagilar ozod etiladi: 1. bojxona chegarasi orqali beg'araz, insonparvarlik yordami yoki xayriya maqsadlari, shu jumladan texnik ko'mak uchun olib o'tilayotgan tovarlar; 2. notijorat maqsadlar uchun jismoniy shaxslar tomonidan qonunchilikda belgilangan bojsiz olib kirish normasi doirasida olib o'tiladigan tovarlar; 4. bojxona imtiyozlaridan foydalanuvchi chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, xalqaro birlashmalar va tashkilotlar rasmiy foydalanishi uchun bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar, shuningdek bojxona hududidan olib chiqiladigan hamda O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun mo'ljallangan tovarlar;	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—

	5. davlat muzeylarining, axborot-kutubxona muassasalarining, arxivlarining fondlarida va O'zbekiston Respublikasining madaniy boyliklari saqlanadigan davlatga qarashli boshqa joylarda doimiy saqlanadigan, bojxona hududidan vaqtincha olib chiqiladigan va ushbu hududga qaytarib olib kiriladigan madaniy boyliklar; 6. ko'rgazmada namoyish etish uchun davlat muzeylari, axborot-kutubxona muassasalari, arxivlari va davlatga qarashli O'zbekiston Respublikasining madaniy boyliklari saqlanadigan boshqa joylar tomonidan bojxona hududiga vaqtincha olib kiriladigan hamda ko'rgazmalar va shunga o'xshash boshqa tadbirlar o'tkazilganidan keyin qaytarib olib chiqiladigan madaniy boyliklar; 7. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, Milliy gvardiyasining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining va Davlat bojxona qo'mitasining harbiy yuklari; 8. yuridik shaxslar tomonidan olib kiriladigan, qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravarini va undan kam miqdorni tashkil etadigan tovarlar.			
782.	297-modda. Tarif imtiyozlari Tashqi savdo siyosati amalga oshirilayotganda ilgari to'langan bojxona bojini qaytarish, bojxona boji stavkasini pasaytirish va bojxona bojini to'lashdan ozod etish tarzida tarif imtiyozlari berilishiga yo'l qo'yiladi. Bojxona bojidan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozlari quyidagilarga nisbatan beriladi: 1) xalqaro yo'nalishda yuklar, bagaj va yo'lovchilar tashishni amalga oshiradigan transport vositalariga, shuningdek ularning yo'lda qatnov vaqtida, oraliq to'xtash punktlarida bir maromda ishlashi uchun zarur bo'lgan yoki transport vositalarida yuz bergan avariyalarga (nosozliklarga) barham berish uchun bojxona hududidan tashqarida olingan moddiy-texnika ta'minoti predmetlariga va anjomlariga, yoqilg'iga, oziq-ovqatga va boshqa mol-mulkka; 2) O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasiga, chet el valyutasiga (numizmatika maqsadida ishlatiladigan valyuta bundan mustasno), shuningdek qimmatli qog'ozlarga; 3) dengizda ov bilan band bo'lgan O'zbekiston Respublikasi kemalarini hamda O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan ijaraga olingan (fraxt qilingan) kemalarning faoliyatini ta'minlash uchun bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan moddiy-texnika ta'minoti predmetlariga va anjomlariga, yoqilg'iga, oziq-ovqatga va boshqa mol-mulkka, shuningdek ularning bojxona hududiga olib kiriladigan ov mahsulotiga; 4) davlat mulkiga aylantirilishi lozim bo'lgan tovarlarga; 5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kiriladigan tovarlarga; 10) chet ellik investorlar, chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy ravishda yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning shaxsiy ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—

	11) O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy summasi ellik million AQSh dollari ekvivalentidan ortiq bo‘lgan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyani amalga oshirgan chet ellik yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, basharti olib kirilayotgan tovarlar ularning o‘z ishlab chiqarish mahsuloti bo‘lsa; 12) mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlar olib borish uchun mo‘ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan chet ellik investor yoki boshqa shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek investor tomonidan bojxona hududidan olib chiqiladigan, mahsulot taqsimotiga oid bitimga muvofiq investorga tegishli bo‘lgan mahsulotga; 14) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig‘i bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalariga.			
783.	65-modda. Vaqtincha olib kirilayotgan tovarlarni bojxona bojlari va soliqlar to‘lashdan shartli ozod etish Vaqtincha olib kirilayotgan ayrim tovarlarga nisbatan bojxona bojlari va soliqlar to‘lashdan shartli ozod etish qo‘llaniladi. Bunday tovarlarning ro‘yxati va ozod etish shartlari, shuningdek vaqtincha olib kirilgan tovarlarga nisbatan bojxona bojlari va soliqlar to‘lash bo‘yicha imtiyozlarning amal qilish muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—
784.	53-modda. Qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilayotganda ularga nisbatan bojxona to‘lovlarining qo‘llanilishi Olib kiriladigan qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilayotganda bojxona bojlari va qo‘shilgan qiymat solig‘i tovarlarni qayta ishlash operatsiyalarining qiymatidan kelib chiqib hamda qayta ishlash mahsulotlariga qo‘llaniladigan bojxona bojlari va qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari bo‘yicha hisoblanadi. Qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan aksiz solig‘i qayta ishlash mahsulotlarining bojxona qiymati va miqdoridan kelib chiqib, qayta ishlash mahsulotlariga qo‘llaniladigan stavkalar bo‘yicha hisoblanadi. Qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan bojxona bojlarining xos stavkasini qo‘llanilayotganda to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona bojlarining miqdori qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan xos stavkada hisoblangan bojxona boji summasi bilan qayta ishlash operatsiyalari qiymatining qayta ishlash mahsulotlari bojxona qiymatiga nisbatining ko‘paytmasi sifatida qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilganda bo‘lgani kabi hisoblab chiqariladi. Qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan ushbu moddaga muvofiq qo‘llaniladigan bojxona to‘lovlarini hisoblab chiqarish maqsadida, qayta ishlash operatsiyalari qiymati quyidagi qiymatlarning summasini ifoda etadi:	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—

	olib chiqilgan tovarlarni qayta ishlash; tovarni qayta ishlash joyiga va uning qayta ishlash mahsulotlarini bojxona chegarasigacha qaytarib yetkazib berish, agar bular qayta ishlash qiymatiga qo'shilmagan bo'lsa. Agar olib kirilayotgan qayta ishlash mahsulotlariga bo'lgan mulk huquqi ular erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar boshqa shaxsga o'tkazilgan bo'lsa, mazkur qayta ishlash mahsulotlari ushbu shaxs tomonidan import qilinayotganda bojxona to'lovlari mazkur shaxs tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga mustaqil joylashtirganida bo'lgani kabi hisob-kitob qilinadi. Olib kirilayotgan qayta ishlash mahsuloti: agar tovar shartnoma yoki kafolat majburiyatiga binoan tekin ta'mirlash uchun yoxud ishlab chiqarish nuqsoni mavjudligi sababli olib chiqilgan bo'lsa, bu nuqsonning mavjudligi tovarni dastlabki erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirishda hisobga olinmagan bo'lsa, bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan; agar tovar haq evaziga ta'mirlash uchun olib chiqilgan bo'lsa, bojxona bojlari va aksiz solig'i to'lashdan ozod etiladi.			
785.	10. Belgilansinki, "Sharg'unko'mir" AJni modernizatsiya qilish va loyiha quvvatini yiliga 900 ming tonnagacha toshko'mir qazib olishga yetkazish" investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida va yangi ko'mir qazib olish texnologiyasini ishlatish bo'yicha pudratchi bilan imzoladigan shartnomaning (kontraktning) amal qilish davrida yoki 2026-yil 1-iyulga qadar: "O'zbekko'mir" AJ va "Sharg'unko'mir" AJ, konsorsium, pudratchi va ularning subpudratchi tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ro'yxatlar bo'yicha olib kiradigan hamda respublikada ishlab chiqarilmaydigan uskunalar, mashina va mexanizmlar, butlovchi buyumlar va uzellar, ehtiyot qismlar, materiallar, texnologik jihozlar, avtotransport vositalari, priborlar, dasturiy ta'minot, texnik hujjatlar, shuningdek yoqilg'i moylash materiallari, portlovchi moddalar hamda metall prokati bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'implari bundan mustasno) ozod etiladi; tuzilgan kontraktlarning shartlariga muvofiq konsorsium, xorijiy pudratchi, subpudrat va konsalting tashkilotlari tomonidan olib kiriladigan maxsus transport va avtotransport vositalari, mashina va mexanizmlar, uskunalar va asboblari, butlovchi buyumlar, uzellar va jihozlar davriy boj to'lovlari to'lanmasdan vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtiriladi; mahalliy yetkazib beruvchilar va subpudratchilar konsorsiumga sotadigan tovarlarga (ishlar, xizmatlar) ular O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi tashqarisiga olib chiqilmagan taqdirda qo'shilgan qiymat solig'i "nul" stavka bo'yicha solinadi.	PQ-2727	20.01.2016	—
786.	1. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi texnikalari xaridini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyidagi yagona tartibi 2023-yil 1-apreldan boshlab joriy qilinsin: qishloq xo'jaligi korxonalari va tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha xorijdan olib kelinadigan ishlab chiqarilganiga 3 yildan	PQ-103	29.03.2023	01.04.2025

	oshmagan barcha turdagi qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlari hamda ularning butlovchi buyumlari va ehtiyot qismlari, istisno tariqasida, 2025-yil 1-yanvarga qadar bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlaridan tashqari) va utilizatsiya yig'imidan ozod qilinadi hamda tadbirkorlik subyektlariga erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini 270 kungacha bo'lgan muddatga kechiktirib to'lashga ruxsat beriladi;			
787.	1. Belgilansinki, 2022-yil 1-maydan boshlab 2024-yil 1-yanvarga qadar: 1-ilovada keltirilgan tovarlarni olib kirishda bojxona bo'jlarining nol stavkalari belgilanadi;	PF-145	31.05.2022	01.01.2024
788.	1. Energetika vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi hamda Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2022-yil 10-dekabrda 2023-yil 31-dekabr qadar import qilinadigan, mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan va tadbirkorlik subyektlari tomonidan yakuniy iste'molchilarga sotiladigan AI-80 rusumli avtobenzin mahsuloti uchun, istisno tariqasida, aksiz solig'ini "nol" stavkada qo'llash to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.	PQ-440	12.12.2022	31.12.2023
789.	9. Charm, mo'yna xomashyosi va jun tayyorlash, saqlash va qayta ishlash, chorva mollarini avtomatlashtirilgan holda so'yish, jun, qorako'l va sun'iy charmdan buyumlar, charm-attorlik mahsulotlari, poyabzal ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga 2026-yil 1-yanvarga qadar muddatda quyidagi ko'rinishdagi soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar berilsin: foyda solig'i va mol-mulk solig'i, aylanmadan olinadigan soliqni to'lashdan ozod qilish; belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha import qilinadigan asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, respublikada ishlab chiqarilmaydigan xomashyo, materiallar va furnitura uchun bojxona to'lovlari (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imlardan tashqari) to'lashdan ozod etish; yuqoridagi tasdiqlanadigan ro'yxatlarga kiritilmagan, o'z ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, xomashyo, materiallar va furnituralarni import qilishda bojxona to'lovlarini (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imlardan tashqari) to'lash muddatini qonunchilikda belgilangan tartibda kechiktirish.	PQ-3693	03.05.2018	—
790.	4. Yillik tushumida xalqaro yuk tashish xizmatlari eksporti ulushi 50 va undan yuqori foizni tashkil etadigan milliy avtotransport korxonalari va tovarlarni tashishni tashkil etish, omborga joylashtirish, saqlash, ishlov berish va tarqatish bilan shug'ullanuvchi transport-logistika kompaniyalari: 2024-yilning 1-yanvariga qadar O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, transport-logistika xizmatlari ko'rsatishga mo'ljallangan, belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan omborxona uskunolari, yuk ortish-tushirish texnikasi, agregatlar,	PQ-3422	02.12.2017	01.01.2024

	ehtiyot qismlar va boshqa tovarlar uchun bojxona to'lovleri (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruv yig'implaridan tashqari) to'lashdan ozod qilinsin.			
791.	5. Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari, farmatsevtika mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalar, ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olib kelinadigan hamda farmatsevtika mahsulotlarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan dorixona ichida dori tayyorlash maqsadida olib kiriladigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan texnologik va laboratoriya uskunalari, ularning butlovchi va ehtiyot qismlari, farmatsevtika ishlab chiqarish binolari uchun "toza xonalar", sendvich-panellar va ventilatsiya tizimlari, shuningdek, laboratoriya hayvonlarini boqish, klinik-oldi tadqiqotlar va dori vositalari ishlab chiqarish (shu jumladan dorixona ichida tayyorlash) uchun ishlatiladigan xomashyo va materiallar, tibbiyot buyumlari va qadoqlash materiallari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha 2025-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojlaridan ozod qilinsin.	PF-55	21.01.2022	01.01.2025
792.	6 ² . Barcha tijorat banklariga 2024-yil 1-yanvarga qadar belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan bank jihozlari, texnikalari va bank kartalarini olib kirishga ruxsat berilsin hamda ular bu bilan bog'liq bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig'implari bundan mustasno) ozod etilsin.	PQ-3694	04.05.2018	01.01.2024
793.	4. Belgilansinki: dorivor o'simliklar xomashyosidan biologik faol qo'shimchalar, essensiyalar va ekstraktlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olib kelinadigan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan texnologik va laboratoriya uskunalari, ularning butlovchi va ehtiyot qismlari, sendvich-panellar va ventilatsiya tizimlari hamda biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan xomashyo va materiallar, qadoqlash materiallari belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha 2025-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojidan ozod qilinadi;	PF-139	20.05.2022	01.01.2025
794.	8. Ozod qilish: loyihani amalga oshirish doirasida OTB qarzi, bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'implaridan tashqari), qo'shilgan qiymat solig'idan, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar va yig'implardan sotib olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va transport vositalari;	PQ-2813	02.03.2017	—
795.	8. Quyidagilar: b) 2025-yil 1-yanvargacha belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan, shu jumladan lizing shartnomasi asosida olib kelinadigan yangi tibbiyot asbob-uskunalari, butlovchi buyumlar va ularning ehtiyot qismlari hamda sarflash materiallari bojxona bojidan ozod etilsin.	PQ-2863	01.04.2017	01.01.2025
796.	4. Bitimdagi kelishuvlar ijrosini ta'minlash maqsadida, istisno tariqasida, loyihani amalga oshirishda:	PQ-5208	04.08.2021	—

	import qilingan tovarlar va moddiy boyliklarni majburiy sertifikatlash tartibotlaridan o'tishdan, bojxona boji, aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'idan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'implari bundan mustasno) ozod qilinsin.			
797.	12. 2025-yil 1-yanvarga qadar: oliy ta'lim muassasalari tomonidan o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha tibbiyot yo'nalishidagi o'quv simulatsion asbob-uskunalar, shuningdek, o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar doirasida oliy ta'lim muassasalari va ular huzuridagi ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini ta'minlash uchun olib kelinadigan kitoblar, jurnallar, o'quv adabiyotlari, dasturiy ta'minotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, o'quv va ilmiy laboratoriyalar hamda sarflanadigan laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) bojxona to'lovlarini to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'implaridan tashqari); O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro kelishuv bo'yicha qo'shma dasturlar (fakultetlar va akademik dasturlar) hamda filiallar (markazlar) shaklida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'ygan chet el oliy ta'lim muassasalari ularning O'zbekiston Respublikasida amalga oshirayotgan oliy ta'lim faoliyati doirasida olingan daromadlari bo'yicha barcha turdagi soliqlar, shuningdek chet ellik xodimlarning mehnatiga haq to'lash fondi qismi bo'yicha yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan ozod etilsin.	PQ-4391	11.07.2019	01.01.2025
798.	11. "Toshkent viloyati shahar va tumanlarining suv ta' minoti va kanalizatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish va qurish (1-bosqich)"loyihasini amalga oshirish doirasida: O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg' armasi bundan mustasno, OTB ssudasi, or bojxona to'lovlari (bojxona yig'implari bundan mustasno), qo'shilgan qiymat solig'i, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar va yig'implar hisobidan sotib olinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va maxsus transport vositalari;	PQ-2818	03.03.2017	—
799.	14. Belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatga muvofiq 2024-yilning 1-yanvariga qadar olib kiriladigan, turistlar tashrif buyuradigan joylarga o'rnatiladigan antivandal sanitariya-gigiyena shoxobchalari, shuningdek, sport majmualari, moddiy madaniy meros obyektlari, muzeylar, teatrlar, galereyalar va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar, jihozlar, turniketlar, dasturiy ta'minot, to'lov-ma'lumot terminallari, videokuzatuv tizimlari bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'implaridan va qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari) ozod etilsin.	PQ-4095	05.01.2019	01.01.2024
800.	9. Elektrotexnika sanoati tarmog'i korxonalari 2025-yil 1-yanvarga qadar muddatga belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha o'zlarining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va asbob-uskunalar bo'yicha bojxona bojlari to'lashdan ozod etilsin.	PQ-4348	30.05.2019	01.01.2025
801.	1. Yuk tashish uchun mo'ljallangan, ishlab chiqarilganiga 7 yildan oshmagan quyidagi transport vositalarini 2025-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasiga import qilishda ularga	PQ-5225	19.08.2021	01.01.2025

	bojxona bojining, utilizatsiya yig'imining va avtotransport vositalarini sotib olganlik uchun avtotransport yig'implarining nol stavkalari qo'llanilsin: “Yevro-5” va undan yuqori ekologik toifa talablariga mos keladigan avtotransport vositalari (TIF TN kodlari 8701 20, 8704 23 (samosvallardan tashqari));			
802.	16. Belgilansinki, Agentlik va uning tizimidagi ta'lim muassasalari uchun xorijiy davlatlardan olib kelinadigan adabiyotlar, multimedia vositalari, o'quv-laboratoriya jihozlari, asbob-uskunalar va reaktiv mahsulotlar bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'implardan tashqari) ozod etiladi.	PQ-5188	19.07.2021	—
803.	6. Loyihani amalga oshirish davrida quyidagilar: belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlarga muvofiq olib kiriladigan tovarlar (xarid qilinadigan ishlar, xizmatlar) va transport vositalari, jihozlar, texnologiyalar va materiallar — bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'implaridan tashqari), shu jumladan ular “vaqtinchalik chetdan olib kelish” bojxona rejimida rasmiylashtirilganda — davriy bojxona to'lovlaridan, shuningdek, avtotransport yig'implaridan;	PQ-4409	30.07.2019	—
804.	1. Nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan o'z ehtiyojlari uchun respublika hududiga olib kiriladigan yangi tez tibbiy yordam avtomobillari (TIF TN kodi 8703 22 101 0, 8703 23 193 0, 8703 24 101 0, 8703 31 101 0, 8703 32 191 0, 8703 33 191 0) 2025-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatga import bojxona bojidan ozod qilinsin.	PQ-4737	30.05.2020	01.01.2025
805.	4. Geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, shuningdek, ular tomonidan jalb etiladigan pudrat va yordamchi pudrat tashkilotlari quyidagilardan ozod etilsin: konlarni qidirish, aniqlash va ishlatish davrida geologik qidiruvni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus texnikalarni vaqtincha olib kirishda davriy bojxona to'lovlaridan; konlarni qidirish, aniqlash va ishlatish bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari va maxsus texnikalarni import qilishda bojxona bojidan. O'zbekiston Respublikasi hududida uglevodorod konlarini aniqlash va qidirishni amalga oshiruvchi mahalliy korxonalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 28-apreldagi “Neft va gaz konlarini razvedka qilish hamda ularni qazib chiqarishga bevosita xorijiy sarmoyalarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-2598-son Farmonining 4-bandini uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq qilinsin.	PF-6319	06.10.2021	—
806.	“1. Har bir Ahdlashuvchi Tomon yoki tayinlangan aviakorxona tomonidan xalqaro havo qatnovlarida foydalanilayotgan havo kemalari, shuningdek, ushbu kemada ro'yxatdagi doimiy asbob-uskunalar, yoqilg'i va moylash mahsulotlari ta'minoti, bort zaxiralari (jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlik va tamaki mahsulotlari), bunday havo kemalari, basharti ushbu asbob-uskunalar va ta'minotlar boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududiga kelgan vaqtdan qaytib ketgunga qadar yoki ushbu hudud ustida amalga oshiriladigan parvozlar yoki parvozlarning ma'lum qismi	BAYONNOMA	30.04.2018	—

	davomida ishlatilguniga qadar havo kemasi ichida qolsa, barcha bojxona bojlari, nazorat yig'implari va boshqa to'lovlar va soliqlardan ozod qilinadi. 2. Bunday soliqlar va bojlardan quyidagilar ham ozod qilinadi, ko'rsatilgan xizmat uchun olinadigan yig'implar bundan mustasno: a) Har qanday Ahdlashuvchi Tomon hududida uning ma'muriyati belgilagan me'yorlar doirasida olingan va boshqa Ahdlashuvchi Tomonning xalqaro havo parvozlarni amalga oshiradigan havo kemasi ichida foydalanishga mo'ljallangan zaxiralari; b) Har qanday Ahdlashuvchi Tomon hududiga xalqaro havo parvozlarida foydalaniladigan boshqa Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonasi havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatish yoki uni ta'mirlash uchun keltirilgan ehtiyot qismlar va doimiy asbob-uskunalar; s) bir Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonasi xalqaro havo parvozlarida foydalanadigan havo kemasida ishlatish uchun mo'ljallangan yoqilg'i va moylash ta'minotlari, hatto bu ta'minotlar havo kemasiga olingan Ahdlashuvchi Tomon hududining ustida amalga oshiriladigan parvozlar davomida ishlatilganda ham; d) Ahdlashuvchi Tomonlardan birining tayinlangan aviakorxonasi tomonidan o'zining foydalanish ehtiyojlari uchun keltirilgan yoxud keltiriladigan xorijiy aviakorxona belgisiga ega bo'lgan reklama materiallari (kataloglar, preyskurantlar, tijorat broshyuralari, modellar, posterlar, broshyura va boshqalar), tashuv hujjatlari, bronlash va aloqa uchun mo'ljallangan elektron asbob-uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, vakolatxonalarning ish faoliyatini va asbob-uskunalarini yuritish uchun mebel va jihozlar, bojxona qoidalariga asosan qayta olib chiqilgunga yoki boshqa ko'rsatmaga qadar.			
807.	Статья 246. Ввоз товаров на территорию Республики Узбекистан, освобождаемый от налогообложения б) технологического оборудования, аналоги которого не производятся в Республике Узбекистан, ввозимого на территорию Республики Узбекистан по утвержденному перечню;	Bojxona kodeksi	30.12.2019	—
808.	Статья 297. Тарифные льготы 13) технологического оборудования, аналоги которого не производятся в Республике Узбекистан, ввозимого на территорию Республики Узбекистан по утвержденному перечню;	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—
809.	16. Belgilab qo'yilsinki: koronavirus infeksiyasini aniqlash bo'yicha ekspress-testlarni olib kirishda ular uchun bojxona rasmiylashtiruv yig'imi undirilmaydi.	PF-5978	03.04.2020	—
810.	b) quyidagi transport vositalariga utilizatsiya yig'imi to'lanmaydi: davlatlararo, hukumatlararo, xalqaro tashkilotlar yo'nalishlari bo'yicha xayriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik ko'mak (grant) mablag'lari hisobiga olib kiriladigan transport vositalariga;	347	02.06.2020	—
811.	3. Belgilansinki:	PQ-4889	11.11.2020	01.01.2024

	b) ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish darajasi past bo'lgan Taxtako'pir, Bo'zatov va Shumanay tumanlarida yangidan tashkil etiladigan sanoat yo'nalishidagi tadbirkorlik subyektlari 2024-yil 1-yanvarga qadar: O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan va faqat o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan asbob-uskuna, butlovchi va ehtiyot qismlar uchun bojxona boji to'lashdan ozod qilinadi;			
812.	10. "Yashnobod" texnoparki ma'muriyati va rezidentlari amalga oshirilayotgan innovatsiya loyihalari bo'yicha "Yashnobod" texnoparkining butun faoliyat ko'rsatish davrida quyidagilardan: belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlarga muvofiq, innovatsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida o'z ishlab chiqarish ehtiyoji uchun olib kiriladigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskuna, xomashyo, materiallar, reaktivlar, butlovchi buyumlar hamda qurilish materiallari uchun bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin.	PF-5068	05.06.2017	—
813.	246-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish 9) xalqaro moliya institutlarining qarzlar va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlar hisobidan olib kiriladigan tovarlar, agar ular olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi qonunda nazarda tutilgan bo'lsa;	Soliq kodeksi	30.12.2019	—
814.	284-modda. Soliq solish obyekti 4) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga quyidagi aksiz to'lanadigan tovarlarni: davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirish;	Soliq kodeksi	30.12.2019	—
815.	6. Belgilab qo'yilsinki, mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun taqdim etilgan uzaytirilgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 12-noyabrdagi "Islom taraqqiyot banki ishtirokida "Toshkent-Termiz M39 avtomobil yo'lini qayta qurish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1433-sonli hamda 2011-yil 28-dekabrdagi "Saudiya Arabistoni taraqqiyot jamg'armasi va Quvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida "G'uzor-Chim-Ko'kdala 4R87 avtomobil yo'lini qaytaqurish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1671-sonli qarorlarida taqdim etilgan soliq va bojxona imtiyozlarining amal qilishi saqlanib qoladi.	PQ-3011	26.05.2017	—
816.	75-modda. Soliq imtiyozlari O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh boshqarmalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muassasalari ushbu Kodeksda nazarda tutilgan soliqlarni to'lashdan ozod etiladi, bundan ijtimoiy soliq va O'zbekiston Respublikasining hududiga olib kirishda (importida) to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i mustasno.	Soliq kodeksi	30.12.2019	—

817.	246-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish 11) dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun qonunchilikda belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan xomashyo. Mazkur norma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalariga, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.	Soliq kodeksi	30.12.2019	—
818.	14. Qurilish davrida, shuningdek, yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqarish bo'yicha obyektni foydalanishga topshirish sanasidan boshlab 10 yil mobaynida: “UzPCA” MChJ tomonidan olib kiriladigan, shuningdek, “UzPCA” MChJning yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqarish va servis xizmatini ko'rsatishda foydalaniladigan texnologik asbob-uskuna, materiallar va butlovchi buyumlar ishlab chiqaruvchi boshqa tashkilotlar, ilovaga muvofiq; yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqarish bo'yicha obyektlarni qurish uchun zarur bo'lgan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan va belgilangan tartibdagi ro'yxatlar bo'yicha tasdiqlanadigan “O'zavtosanoat” AJ, “Avtosanoat-Injiniring” va “12-trest” MChJ tomonidan olib kiriladigan tovarlar bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin.	PQ-3053	13.06.2017	19.06.2027
819.	5. Texnopark rezidentlari 2028-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatga: barcha turdagi soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni, shuningdek ijtimoiy soliqni to'lashdan; belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan uskunalar, butlovchi qismlar, detallar, uzellar, texnologik hujjatlar, dasturiy ta'minot vositalari uchun bojxona to'lovlari to'lashdan (bojxona yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin.	PF-5099	30.06.2017	01.01.2028
820.	8. Jamg'arma quyidagilardan: belgilangan tartibda tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha respublikada ishlab chiqarilmaydigan va Jamg'arma mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan ilmiy-laboratoriya asbob-uskunalar bo'ljona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'imlar bundan mustasno) ozod qilinsin.	PQ-3416	30.11.2017	—
821.	6. Belgilansinki, investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida tuzilgan shartnoma va shartnomada belgilangan kafolat muddati davomida: "O'zbekenergo" AJ "turaqo'rg'on IES qurilishi direksiyasi" UK, xorijiy kompaniyalar konsorsiumi va uning subpudrat tashkilotlari, shu jumladan "vaqtinchalik olib kirish" rejimida olib kiriladigan asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallar, ehtiyot qismlar, asboblari, asboblari va maxsus transport vositalari bo'ljona to'lovlaridan ozod qilinadi (bojxona yig'	PQ-2709	30.12.2016	—

	implari bundan mustasno).) o 'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro 'yxatlar bo' yicha; xorijiy kompaniyalar konsorsiumi va uning subpudrat tashkilotlariga mahalliy yetkazib beruvchilar va subpudrat tashkilotlari tomonidan amalda o 'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqilmasdan sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) nol stavka bo 'yicha qo'shilgan qiymat solig' iga tortiladi.			
822.	9. Belgilansinki, “Sho‘rtan gaz-kimyo kompleksining tozalangan metan negizida suyuq sintetik yoqilg‘i ishlab chiqarish” investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15-oktabrdagi “Sho‘rtan gaz-kimyo kompleksining tozalangan metan negizida suyuq sintetik yoqilg‘i ishlab chiqarish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1206-son hamda 2011yil 19-sentabrdagi “Sho‘rtan gaz-kimyo kompleksining tozalangan metan negizida suyuq sintetik yoqilg‘i ishlab chiqarish” loyihasini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1618-son qarorlarida belgilangan soliq, bojxona imtiyozlari va preferensiyalar saqlab qolinadi; “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan tasdiqlanadigan “Uzbekistan GTL” MChJ buyurtmanomalari asosida olib kiriladigan asbob-uskunalar va materiallar bojxona to‘lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig‘imlardan tashqari) ozod etiladi; “Uzbekistan GTL” MChJ xaridlar, loyihalashtirish, muhandislik ishlari, qurilish, foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash, xavfsizlik texnikasi va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro normalar va standartlarni ko‘llashga haqli; “Sasol Synfuels International Netherlands Cooperatief U.A.” va “Petronas International Corporation Ltd.” kompaniyalari ishtirokchilik ulushining oldi-sotdisi shartnomalari doirasida “Uzbekistan GTL” MChJning ustav jamg‘armasidagi ishtirokchilik ulushini “O‘zbekneftgaz” AJ foydasiga topshirish munosabati bilan olingan daromadlar bo‘yicha to‘lov manbaidan undiriladigan yuridik shaxslarning foyda solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi.	PQ-2706	29.12.2016	—
823.	6. O‘zbekiston Badiiy akademiyasining buyurtmanomalariga binoan Xalqaro tanlov doirasida xorijiy davlatlardan keltiriladigan yuklar bojxona to‘lovlaridan ozod qilinsin.	PQ-2667	02.12.2016	—
824.	4. Konsepsiyani amalga oshirish doirasida yer maydonlarini foydalanishga kiritishda: yerdan foydalanuvchilarning ehtiyojlari uchun olib kelinadigan va respublikada ishlab chiqarilmaydigan xom-ashyo, materiallar, texnika, asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda bojxona to‘lovlari (qo‘shilgan qiymat solig‘idan tashqari) to‘lashdan ozod qilinadi;	PF-5742	17.06.2019	—
825.	9. “Buxoro viloyatining Olot va Qorako‘l tumanlarini ichimlik suvi bilan ta‘minlashni yaxshilash” loyihasini amalga oshirish doirasida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha Xalqaro taraqqiyot uyushmasi krediti mablag‘lari va O‘zbekiston Respublikasining	PQ-2001	15.07.2013	—

	mablag'lari hisobiga olib kelinadigan tovarlar va transport vositalari bojxona to'lovlaridan ozod qilinsin (bojxona yig'implari bundan mustasno).			
826.	5. Belgilansinki, loyihani amalga oshirish doirasida shartnomaning amal qilish muddati va unda belgilangan kafolatlar davrida: “O‘zbekenergo” AJ, konsorsium va uning subpudrat tashkilotlari, shu jumladan, vaqtinchalik olib kirish bojxona rejimida olib kelinadigan uskunalar, butlovchi buyumlar va uzellar, xomashyo va materiallar, ehtiyot qismlar, anjomlar, instrumentlar, texnologik hujjatlar hamda maxsus transport vositalari belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'implaridan tashqari) ozod etiladi; O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqilmasdan, mahalliy yetkazib beruvchilar va subpudrat tashkilotlari tomonidan konsorsium va uning subpudrat tashkilotlariga sotiladigan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etiladi.	PQ-3264	11.09.2017	—
827.	16. O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmayotgan va ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha chetdan olib kelinadigan asbob-uskunalar, texnika, aloqa tizimlari va vositalari, dasturiy mahsulotlar va boshqa moddiy-texnik vositalar 2025-yilning 1-yanvariga qadar bojxona to'lovlaridan ozod qilinsin (bojxona rasmiylashtiruv yig'implari va qo‘shilgan qiymat solig‘i bundan mustasno).	PQ-2992	23.05.2017	01.01.2025
828.	15. Quyidagilar: ishlab chiqarish obyektni qurish, tayyorlash va o‘zlashtirish davrida, “Uzbekistan GTL” MChJ, uning pudratchilari va yordamchi pudratchilari tomonidan “O‘zbekneftgaz” AJ tasdiqlaydigan “Uzbekistan GTL” MChJ buyurtmanomalariga asosan, shu jumladan “vaqtincha olib kirish” rejimida olib kiriladigan tovarlar, xususan, uskuna, avtotransport vositalari, maxsus transport, katalizatorlar, ishlab chiqarishda ishlatiladigan kimyoviy moddalar, materiallar, ehtiyot qismlar, xomashyo, texnik resurslar bojxona to'lovlaridan; loyihani amalga oshirish davrida “Uzbekistan GTL” MChJga ish va xizmatlar ko'rsatuvchi xorijiy kompaniyalar daromadlari, shuningdek, xorijiy banklar va moliyaviy institutlar daromadlari loyiha doirasida to'lov manbai va O‘zbekiston Respublikasi norezidentlaridan olinadigan yuridik shaxslar foyda solig‘idan; “Uzbekistan GTL” MChJning xorijiy xodimlari mazkur loyihani amalga oshirish doirasida oladigan daromadlari jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqlardan ozod etilsin.	PQ-1206	15.10.2009	—
829.	12. “O‘zbekiston havo yo'llari” MAK olib kiriladigan uchta “Boing-787-8” samolyoti uchun bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etilsin (bojxona rasmiylashtiruv yig'implari bundan mustasno).	PQ-3575	01.03.2018	—
830.	9. Davlat-xususiy sherikchiligi shartlarida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari:	PQ-3651	05.04.2018	—

	tashkil qilinayotgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ehtiyojlari uchun o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan ro'yxatlar bo'yicha olib kelinadigan uskunalar, asbob-anjomlar, o'quv qurollari va o'yingohlar davlat-xususiy sherikchiligi to'g'risidagi bitim tuzilgan kundan boshlab 2 yil muddatga bojxona to'lovlari (bojxonada rasmiylashtirish uchun yig'implardan tashqari) to'lashdan; nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshira boshlagandan keyin o'n yil mobaynida barcha turdagi soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilinsin.			
831.	5. Ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari o'z faoliyatini samarali tashkil etishi uchun maqsadida server uskunalari, texnikalar, dasturiy ta'minot, ehtiyot qismlari va boshqa vositalarni olib kirganlik uchun bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'implardan tashqari)dan ozod etilsin.	PQ-3673	18.04.2018	—
832.	7. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi "Boeing-787-8" olib kirilayotgan samolyot uchun bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'implar bundan mustasno) to'lashdan ozod etilsin.c	PQ-3689	30.04.2018	—
833.	18 ¹ . Multimedia markazining zamonaviy telestudiyasini tashkil etish uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan televizion uskunalar jamlanmasi, uchuvchisiz uchish apparatlari, kompyuter texnikasi, dasturiy ta'minot va boshqa texnika vositalari bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'implardan tashqari) ozod etilsin.	PQ-3662	11.04.2018	—
834.	4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-sonli Farmonining 3, 4 va 5-bandlari qoidalarini "Namangan" EIZ ishtirokchilariga tatbiq etilsin.	PF-5517	20.08.2018	—
835.	13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-son qarorida nazarda tutilgan imtiyozlarning amal qilish muddati 2025-yil 1-yanvarga qadar uzaytirilsin. Quyidagilar: O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha nodavlat umumta'lim muassasalarini jihozlash va faoliyatini ta'minlash uchun olib kiriladigan zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, o'quv va ilmiy-metodik adabiyotlar, anjomlar va moddiy-texnik resurslar 2025-yil 1-yanvarga qadar muddatga bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'implar bundan mustasno); Vazirlik o'qituvchilarning o'z kasb faoliyatini amalga oshirishi chog'ida huquq va erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi da'volar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod qilinsin.	PQ-3931	05.09.2018	01.01.2025
836.	9. Quyidagilar: Loyihani amalga oshirishda ishtirok etayotgan jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasi norezidentlari daromadlari jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqdan ozod qilinsin.	PQ-4021	20.11.2018	—

837.	14. Markaz axborot sohasida davlat xavfsizligini ta'minlash uchun olib kiriladigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, apparat-dasturiy komplekslar, o'quv va laboratoriya jihozlari, ehtiyot qismlar, butlovchi qismlar va radiodetallarga bojxona to'lovlarini (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'implardan tashqari) to'lashdan ozod etilsin.	PQ-4024	21.11.2018	—
838.	11. Boshqaruv kompaniyalarining shartnoma doirasida ko'p kvartirali uy-joy fondini saqlash, undan foydalanish va ta'mirlash uchun olingan daromadlari qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'idan ozod etilsin.	5	04.01.2019	—
839.	9. 2024 yil 1 yanvarga qadar muddatga: b) O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan Universitetni qurish, jihozlash, faoliyatini tashkil etish va keyingi faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha olib kelinadigan uskunalar, kompyuter texnikasi, o'qitishning texnik vositalari, adabiyotlar, multimedia mahsulotlari, dasturiy mahsulotlar va inventarlar bojxona to'lovlaridan (bojxona yiqimlaridan tashqari) ozod etilsin.	PQ-4097	01.07.2019	01.01.2024
840.	7. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq: a) 2024-yil 1-yanvarga qadar tumanda davlat ro'yxatidan o'tib, unda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-son Farmonining 3-bandida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etiladi, bundan mazkur qaror qabul qilingunga qadar neft va gazni qidirish, burg'ulash, qayta ishlash, nasoslar qurish hamda ta'mirlash sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar mustasno; tumandagi dastur va manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashda ishtirok etuvchi tashkilotlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarni qurish, restavratsiya, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 10-sentabrdagi F-5361-son farmoyishi 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llaniladi. Bunda mazkur farmoyishning 3-bandidagi imtiyozlar ushbu kichik bandning ikkinchi xatboshisida belgilangan muddatgacha amal qiladi; d) tumanda davlat ro'yxatidan o'tib, unda faoliyat yuritayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga dvigatel hajmi 2,4 litrdan kam bo'lmagan yuqori o'tish qobiliyatiga ega bo'lgan olib kirilayotgan transport vositalaridan avtotransport vositalarini ro'yxatga olish bo'yicha alohida davlat raqami seriyasini tatbiq etgan holda va ulardan faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida foydalanish sharti bilan boj to'lovlarini to'lamasdan foydalanish huquqi beriladi. Bunda ro'yxatga olinganiga 5 yil bo'lgan transport vositalarini boj to'lovlarini to'lamasdan tasarruf etishga ruxsat beriladi.	37	16.01.2019	01.01.2024

841.	5. “Sho‘rtan GKK” MChJning “Qurilish-montaj va ta‘mirlash boshqarmasi” shu‘ba korxonasi hamda uning subpudrat tashkilotlari — “Alrut Build” MChJ, “Porloq Taraqqiot Qurilish Servis” MChJ va “Qashqadaryo Maxsus Qurilish Dizayn” shu‘ba korxonasi tomonidan Qashqadaryo viloyati sog‘liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlarini bajarish doirasida 2-ilovaga* muvofiq ro‘yxat bo‘yicha olib kelingan tibbiyot uskunalari va boshqa asbob-uskunalar, qurilish materiallari, butlovchi buyumlar va mebel (keyingi o‘rinlarda tovarlar deb ataladi) bojxona to‘lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig‘imlaridan tashqari) ozod qilinsin.	148	20.02.2019	—
842.	11. Loyihani amalga oshirish doirasida: OTB qarz mablag‘lari hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va transport vositalari bojxona to‘lovlaridan (bojxona yig‘imlaridan tashqari), qo‘shilgan qiymat solig‘i, davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lanadigan majburiy ajratmalar va to‘lovlardan; O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari — yuridik shaxslar — daromad solig‘i to‘lashdan; O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari — jismoniy shaxslar-jismoniy shaxslarning daromad solig‘idan ozod etilsin. Ushbu bandda nazarda tutilgan soliq imtiyozlari taqdim etish natijasida bo‘shaydigan mablag‘lar summasi O‘zbekiston Respublikasining mazkur loyihani amalga oshirishga qo‘shgan hissasi ekanligi belgilab qo‘yilsin.	PQ-4271	09.04.2019	—
843.	3. “Falk Porsche Fiberglass” MChJga nisbatan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3594-son Farmonida nazarda tutilgan imtiyozlar jamiyat joylashgan manzildan qat‘iy nazar; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi “Shisha tola, elektr tejamkor isitish asbob-uskunalar va energiya zamonaviy tejamkor tizimlarini ishlab chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3417-son qarori 5-bandining uchinchi xatboshi bilan belgilangan imtiyozlar 2024-yil 31-dekabrga qadar tatbiq etilsin.	PQ-4277	10.04.2019	31.12.2024
844.	20-modda. Bitimni ijro etish chog‘idagi soliqlar va to‘lovlar Investorlar, shuningdek ularning pudratchilari va ikkilamchi pudratchilari O‘zbekiston Respublikasida belgilangan barcha turdagi soliqlar va bitimlarda belgilangan yer qa‘ri uchastkalarida izlash va qidirish ishlarini bajarish bilan bog‘liq boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan ozod qilinadilar.	312-II	07.12.2001	—
845.	297-modda. Tarif imtiyozlari Tashqi savdo siyosati amalga oshirilayotganda ilgari to‘langan bojxona bojini qaytarish, bojxona boji stavkasini pasaytirish va bojxona bojini to‘lashdan ozod etish tarzida tarif imtiyozlari berilishiga yo‘l qo‘yiladi. Bojxona bojidan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozlari quyidagilarga nisbatan beriladi:	Bojxona kodeksi	20.01.2016	—

	7) uchinchi davlatlar uchun mo'ljallangan va bojxona nazorati ostida bojxona hududidan bojxona tranziti bojxona rejimida olib o'tiladigan tovarlarga; 8) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha to'liq yoki qisman xalqaro moliya institutlarining va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag'lari (qarzlari, kreditlari) hisobidan O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan loyihalar doirasida yuridik shaxslar tomonidan olinadigan tovarlarga;			
846.	8. Loyihani amalga oshirish doirasida, shuningdek kafolat muddati davomida uning barcha ishtirokchilari to'lovdan ozod qilinsin: O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar va uzellar, materiallar, texnologik hujjatlar va asbob-uskunalar, metall prokat, maxsus transport vositalari, qurilish-yo'l texnikasi, mashinalar va mexanizmlar, loyiha bo'yicha ishlarni bajarish doirasida olib kiriladigan yonilg'i-moylash materiallari uchun bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv yig' imlaridan tashqari) belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlarga; O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan ko'rsatilgan tovarlar, ishlar (xizmatlar), shu jumladan ishlar (xizmatlar) uchun qo'shilgan qiymat solig'i; avtotransport yig'imi; loyihani amalga oshirish doirasida sotib olingan va topshirilgan mol-mulk solig'i.	PQ-3104	30.06.2017	—